

Tursunmetova Robiya Abdulla qizining ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD

E'LON

2023-YIL 20-SENTABR KUNI O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT

VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY

DARAJALAR BERUVCHI PhD. 08/28.08.2020.SAN.121.01 RAQAMLI

ILMIY KENGASH MAJLISI BO'LIB O'TADI

KUN TARTIBI:

Tursunmetova Robiya Abdulla qizining 17.00.03 – Kino san'ati. Televideniye. san'atshunoslik ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan "Zamonaviy o'zbek badiiy kinosida xarakter talqinlari (1991-2021 – yillar)" mavzusidagi dissertatsiyasi muhokamasi bo'lib o'tadi.

Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A" binosi,

2-qavat, majlislar zalida **10.00** da boshlanadi.

016_P_Турсунметованинг_Химоя_Эълони

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zDSMI Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

Kasimova Saitjanovnaning DARAJALAR BERUVCHI PhD

**Nodira
ILMIY**

E'LON

2023-YIL 20-SENTABR KUNI O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT

VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY

DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/28.08.2020.SAN.121.01 RAQAMLI

ILMIY KENGASH MAJLISI BO'LIB O'TADI

KUN TARTIBI:

Kasimova Nodira Saitjanovnaning 17.00.03 – Kino san'ati. Televide niye. San'atshunoslik ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan "**O'zbekistonda qisqa metrajli badiiy kinoning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar**" mavzusidagi dissertatsiyasi muhokamasi bo'lib o'tadi.

Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A" binosi,

2-qavat, majlislar zalida **12.30** da boshlanadi.

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zDSMI Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

O'zDSMIda navbatdan tashqari Ilmiy Kengash bo'lib o'tdi

O'zDSMIda navbatdan tashqari ilmiy Kengash bo'lib o'tdi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida rektor v.b. Eldor Shermanov boshchiligidagi institutning navbatdan tashqari ilmiy kengashi bo'lib o'tdi. Unda barcha prorektorlar, dekanlar, bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlari ishtirok etishdi.

Dastlab oxirgi yillarda institutning rivojlanib borayotgan xalqaro aloqalariga, O'zbekiston madaniyati va san'atini dunyoga tanitishga ulkan hissa qo'shib kelayotgan xorijiy hamkorlarga institutning faxriy professori unvonini berish masalasi ko'rib chiqildi. Kengash a'zolari tomonidan O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi madaniyat markazi direktori Samir Abbasov, Qozon davlat madaniyat instituti rektori Ahmadiyeva Roza Shayxaydarovna va Ozarbayjon milliy maqom markazi direktori Sahib Pashshazodalarga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining faxriy professori unvonini berish bir ovozdan ma'qullandi.

Shuningdek, kengashda ijro intizomi, xalqaro shartnomalar bo'yicha biriktirilgan kafedralar tomonidan olib borilayotagan ishlar samaradorligi, 1-6-oktabr kunlari xorijdan tashrif

buyurishi kutilayotgan mehhmonlarni kutib olish bilan bog'liq chora-tadbirlar, ijara xonadonlari va talabalar turar joyi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va boshqa muhim masalalarga birma-bir to'xtalinib, mas'ullar axboroti eshitildi.

Bundan tashqari, kengashda tashkiliy masala ham ko'rilib institut magistratura bo'limi boshlig'i lavozimiga psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent Mahmudov A'zamjon Muxtorovich tayinlanib, uning faoliyatiga omad tilandi.



